

О‘ЗBEK MA‘RIFATPARVAR AYOLLARINING MA‘RIFATLI JAMIYAT QURISH G‘OYALARI

Ruziyeva Dilnoza Muxtorovna
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
1-kurs magistranti

Annotasiya: Globallashib borayotgan va ma’rifiy sohada turli tahdidlar kuchayib borayotgan bugungi olamda ma’naviy hayotimizdagi o‘zgarishlar dinamikasining rivojlanish darajasi, unga xos qonuniyatlarning amalga oshishi va bu bilan bog‘liq o‘ziga xos milliy xususiyatlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Ma’rifatli jamiyat qurish g‘oyasi doimo dolzarb hisoblanib kelgan. Ushbu maqolada o‘zbek ma’rifatparvar ayollarining ma’rifatli jamiyat qurish g‘oyalari haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: ma’rifat, ma’rifatli jamiyat, mafkura, millat taqdiri, teran tafakkur.

«Ma’rifat»ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag‘ishlanib respublikamiz ziyolilari o‘rtasida qizg‘in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma’naviyatning ko‘p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag‘ishlab ko‘plab maqola va mulohazalar e’lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda. Ularda ma’naviyat va ma’rifat, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati haqida fikrlar bildirilmoqda. Lekin aksariyat hollarda ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirishmoqda. Ma’naviyat va ma’rifat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul. Ma’naviyat va ma’rifat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi. Shunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi. Ma’naviyat makon – insonning ichki dunyosidagi muvaffaqiyat va dunyoqarash vositalari asosida inson va uning atrofidagi olamning ko‘p qirrali o‘zaro o‘zaro ta’siri, bir so‘z, harakat va niyatda amalga oshiriladigan, hamma narsaning manfaatini ko‘zlashdir. Shaxsning komilligi uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviyat pok inson ota-onasi, qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilari, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalqining farovonligi haqida qayg‘uradi. Umuman olganda, O‘zbekistonda jamiyatni tubdan yangi

demokratik asoslarda qurish va uni har tomonlama rivojlantirish xalqning dunyoqarashi, ayniqsa yoshlarning salohiyati, ma'naviyati bilan bevosita bog'liqdir.

Darhaqiqat, dunyo mezoni ma'rifat tomon yuz tutmoqda. Buni ilg'agan xalqlar o'z yoshlarini yanada o'qimishli, hunarli qilib tarbiyalab, global dunyoda komillik bilan o'z o'rnini topishlari uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishyapti. Zero, yoshlar taqdiri – millat taqdiri, yoshlarning teran tafakkuri – ma'rifatli jamiyatning zalvorli ziyosidir. Shuning uchun ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o'zgarishlar zamirida har tomonlama barkamol, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, nafaqat ko'plab bilimlarni, balki hozirgi davrda talab katta bo'lgan kasb-hunarlarini egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrlashga qodir, intellektual salohiyati yuksak yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilishdek ustuvor maqsad mujassam ekani tabiiydir.

Anbar Otinning axloqiy qarashlari lirik – falsafiy she'rlarida va «Qarolar falsafasi» (1898) risolasida o'z aksini topgan. Anbar otin ham, inson axloqiy darajasini aql, ilm – ma'rifat bilan bog'laydi va ijtimoiy taraqqiyotga aqliy hamda axloqiy yuksaklik orqali erishish mumkin, degan aqidaga amal qiladi. Uning asarlarida axloqsizlik botqog'iga botib borayotgan jamiyatga nafratni, shariyat va tariqat namoyondalari aynib ketganligi, boylardan insof ko'tarilganligi haqidagi fikrlar mardona ilgari suriladi. «Muqimiya», «Mingboshi kal Omin xajviy», «Olimjon xoji ta'rifi» kabi she'rlarida ana shu yo'nalishini ko'rish mumqin. Tanqidiy – badiiy shakldagi bu yo'nalish «Qarolar falsafasi» risolasida falsafiy – taxliliy shakl qasf etadi. «Qarolar falsafasi» asari asosan bir – birining ziddi bo'lmish ikki muammom – ijtimoiy adolat va ijtimoiy zulm tushunchalariga bag'ishlangan. Risola ko'p o'rinlarda falsafiy - majoziy talqinlardan iborat. Chunonchi, risola davomida ayniqsa, uning birinchi faslida qora va oq ranglarining majoziy hamda botiniy mohiyati o'ziga xos ta'sirida ifodalanadi. Qora mehnati tufayli dunyoni yashnatayotgan insonlar qalbining oqligi, oq tana – yu oq bilak kimsalar qilayotgan ishlarining qoraligi tanqidlanadi va ular shu orqali axloqiy mazmun kasb etadi. Anbar otin shunday deb yozadi: «Ul qaro halq oftob so'zanida mehnat qilib, o'zlari har qancha kuyganlari holda, xosillarini hamtovoqlariga tufxa qilurlar. Misol andoqdurki, qozon bovujud qoradur, o'zi o'tda kuyib qora g'ulgoni holda ovqat pishirib odamlarni to'ydirur qilmoq, bu tadbirlar ila zulmni nobud etib, zulmaini bartaraf qilmoq zarurdir». Albatta, Anbar otinning barcha axloqiy qarashlarini mutloq to'g'ri deb qabul qilish nojoiz. Chunonchi, u sufiylik tariqatlarining hammasini mohiyatan reakstion, degan fikrni ilgari suradi va sufiylarni mustamlakachi amaldorlar ra'yiga qaraydigan rasmiy din peshvolari bilan chalkashtirib yuboradi. Lekin, shunga qaramasdan, Anbar otinning asarlari, ayniqsa, «Qarolar falsafasi» risolasi hozirgi kunda ham ijtimoiy – axloqiy ahamiyatini yo'qotgan emas. Bundan tashqari, Anbar otin shoira va faylasuf olim sifatida ham, shaxs sifatida ham kishini xayratga soladigan darajada matonatli, pokiza inson, yuksak axloq egasi bo'lgan. U umrini Turkiston xalqlari ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishladi, nogiron bo'lishiga qaramay, adolatning paxlavoni bo'lib

kurashdi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizga bu tom ma'nodagi qaxramon ayol orzu qilgan kunlar keldi, Anbar otinning olimona va shoirona bashorati amalga oshdi.

Uvaysiy adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratgan, asarlarida insonni e'zozlash, odamlarni tabiat va xayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat haqidagi ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishgan. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh, Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
2. Gazali Abu Xamid. Voskresheniye nauk o vere. – Moskva: Nauka, 1980. – S.117-122.
3. Devon, T., 1963; Ko'ngil gulzori, T., 1983. /4 yil